

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrası
“Moliyaviy tahlil” fanidan 2025/2026-o‘quv yili bahorgi semestrda
yakuniy imtihon (yozma)da tushadigan savollar ro‘yxati

1. Moliyaviy tahlilning nazariy asoslari
2. Moliyaviy tahlilning axborot bazasi (tahlil ob'ektlari haqidagi ma'lumotlar), ularning ochiqligi va oshkoraligi
3. Ichki va tashqi moliyaviy tahlil farqi. Shart: “ZARAFSHON TEXTILE” korxonasi 2024 yil uchun quyidagi ma'lumotlarni berdi: •Sotuvdan tushum: 2 400 mln so‘m, •Sotilgan mahsulot tannarxi: 1 620 mln so‘m, •Ma'muriy xarajatlar: 180 mln so‘m, •Tijorat xarajatlari: 120 mln so‘m, •Foiz xarajatlari: 90 mln so‘m, •Soliq: 15%. Topshiriq: Korxona foyda ko'rsatkichlarini hisoblang. Ichki va tashqi tahlilda qaysi ko'rsatkichlar muhim ekanini tushuntiring
4. Xususiy kapitalni tahlil etish mazmuni va vazifalari.
5. Pul oqimlari tahlili.
6. Debitorlik qarzlari tarkibi va ulushi tahlili bo'yicha korxonada debitorlik qarzlari quyidagicha:

Ko'rsatkich	Summa (mln so‘m)
Xaridorlardan qarz	240
Xodimlardan qarz	30
Byudjetdan qaytariladigan QQS	50
Boshqa debitorlar	80
Jami debitorlik	400

Topshiriq: Har bir turning ulushini (%) aniqlang, eng katta debitorlik qaysi turga to'g'ri keladi?

7. Bankrotlik instituti va uning rivojlanish istiqbollari.
 8. Korxonalar moliyaviy holatini va samaradorligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlar bo'yicha reytingini aniqlash va ularning qiyosiy tahlili.
 9. Debitorlik qarzlari aylanish koeffitsienti asosida korxonada yillik sotuv hajmi (kreditga) 1 800 mln so‘m. Debitorlik qarzlari: yil boshida 300 mln so‘m, yil oxirida: 500 mln so‘m. Topshiriq: o‘rtacha debitorlik qarzini toping, debitorlik aylanish koeffitsientini hisoblang, debitorlik qarzi necha kunda aylanishini aniqlang
 10. Moliyaviy tahlil fanining zamonaviy boshqaruvdagi roli, o‘rni va ahamiyati
 11. Moliyaviy tahlil bosqislari
 12. Tashqi moliyaviy tahlil: likvidlik koeffitsientlari
- Shart: Korxona balansi ma'lumotlari (mln so‘m):

Ko'rsatkich	Summa
Pul mablag'lari	80
Debitorlik qarzi	220
Tovar-material zaxiralari	300
Qisqa muddatli majburiyatlar	400

Topshiriq: joriy likvidlik koeffitsienti, tezkor likvidlik koeffitsienti, absolyut likvidlik koeffitsientini hisoblang va baholang.

27.Reyting baholash amaliyoti.

28.Korxonalar moliyaviy holatini va samaradorligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlar bo'yicha reytingini aniqlash va ularning qiyosiy tahlili.

29.Korxona foydasini aniqlash (Yalpi, operatsion va sof foyda). "BARAKA TEX" MChJning yillik ma'lumotlari bo'yicha sotishdan tushum (Revenue) = 1 200 000 000 so'm, sotilgan mahsulot tannarxi (COGS) = 780 000 000 so'm, davr xarajatlari (operatsion) = 210 000 000 so'm, foiz xarajatlari = 35 000 000 so'm, soliq stavkasi = 15%. Topping: yalpi foyda, operatsion foyda, soliqqacha foyda, sof foyda.

30.Moliyaviy natijalar va rentabellik tahlili

31.Debitorlik, kreditorlik qarzlari tahlilining mazmuni, ularni tahlil qilish maqsadi va vazifalari.

32.Rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash (ROS, ROA, ROE). Berilgan: sof foyda = 148 750 000 so'm, sotishdan tushum = 1 200 000 000 so'm, o'rtacha aktivlar = 950 000 000 so'm, o'rtacha xususiy kapital = 600 000 000 so'm. Topping: sotuv rentabelligi (ROS), aktivlar rentabelligi (ROA), xususiy kapital rentabelligi (ROE)

33.Moliyaviy tahlilni tashkil etish va axborot manbalari

34.Korxona operatsion faoliyati tahlili

35.Axborot manbalari asosida moliyaviy barqarorlikni aniqlash. Shart: balans ma'lumotlari: ustav kapitali: 1 200 mln, taqsimlanmagan foyda: 300 mln, uzoq muddatli kredit: 700 mln, qisqa muddatli kredit: 500 mln, jami aktivlar: 3 200 mln. Talab: xususiy kapital summasini toping, qarz kapital summasini toping, avtonomiya koeffitsientini hisoblang, moliyaviy risk koeffitsientini hisoblang

36.Operatsion faoliyat tahlilining mazmuni va muhim vazifalari

37.Ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili

38.Axborot manbalari asosida foyda va rentabellik tahlili. Shart: korxona hisoboti: sotuv hajmi: 4 500 mln so'm, mahsulot tannarxi: 3 200 mln, operatsion xarajatlar: 600 mln, soliq: 140 mln. Talab: yalpi foydani hisoblang, operatsion foydani hisoblang, sof foydani hisoblang, sotuv rentabelligini toping

39.Xususiy kapital tarkibi va uning tahlili

40.Debitorlik va kreditorlik qarzlarning shakllanishi.

41.Rentabellik dinamika tahlili (2 yil taqqoslash). Berilgan:

Ko'rsatkich	2024 yil	2025 yil
Tushum	900 000 000	1 200 000 000
Tannarx	630 000 000	780 000 000
Davr xarajatlari	150 000 000	210 000 000

Topping: 2 yil uchun operatsion foyda, operatsion rentabellik, foyda o'zgarish sababini tahlil qiling

42.Xususiy kapitalni tahlil etish mazmuni va vazifalari.

43.Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tarkibi va muddati bo'yicha tahlili.

44.Mahsulot rentabelligini hisoblash. Berilgan: korxona 1 oyda 3 xil mahsulot ishlab chiqargan: har bir mahsulotdan foyda, har bir mahsulot rentabelligi, eng samarali mahsulotni aniqlang.

Mahsulot	Soni (dona)	1 dona narxi	1 dona tannarxi
A	2 000	50 000	38 000
B	1 500	60 000	45 000
C	1 000	90 000	72 000

67.Xususiy kapital o'sishini tahlil qilish. Ma'lumotlar (ming so'm):

Ko'rsatkich	2024 yil	2025 yil
Ustav kapitali	380 000	400 000
Qo'shimcha kapital	70 000	80 000
Zaxira kapitali	40 000	50 000
Taqsimlanmagan foyda	120 000	170 000

Topshiriq: Xususiy kapital o'sishini aniqlang (absolyut va %).

68.Mahsulot (ish, xizmat)larning kritik hajm darajasi va uning omilli tahlili

69.Xarajat elementlari va kalkulyatsiya moddalari, faoliyat turlari hamda javobgarlik markazlari bo'yicha xarajatlar tahlili.

70.Marjinal daromad va zararsizlik nuqtasi (Break-even point). Shart: korxona bir oyda 1 dona mahsulotni 250 000 so'mdan sotadi. o'zgaruvchan xarajat (1 dona): 150 000 so'm, doimiy xarajatlar (oylik): 40 000 000 so'm. Talab: marjinal daromad (1 dona), zararsizlik nuqtasi (donada), zararsizlik nuqtasi (so'mda)

71.Xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlari tahlili.

72.Bankrotlikni aniqlashning turli modellari.

73.Xususiy kapital tarkibini aniqlash. Korxona ma'lumotlari (ming so'm): ustav kapitali 400 000, qo'shimcha kapital 80 000, zaxira kapitali 50 000, taqsimlanmagan foyda 170 000.

Topshiriq: Xususiy kapitalning umumiy summasini hisoblang.

74.Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmini tahlili

75.Buxgalteriya balansi tahlili.

76.Mahsulot tannarxini (ishlab chiqarish xarajatlarini) tahlil qilish. Korxona 2024 yilda 10 000 dona mahsulot ishlab chiqargan. Ishlab chiqarish xarajatlari:

Xarajat turi	Summa (mln so'm)
Xomashyo va materiallar	450
Yoqilg'i va energiya	80
Ish haqi	200
Ijtimoiy ajratmalar	50
Amortizatsiya	120
Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	100
Jami	1000

Topshiriq: 1 dona mahsulot tannarxini hisoblang, har bir xarajatning ulushini (%) toping.

77.Xususiy kapitalning dinamik tahlili.

78.Bankrotlikni aniqlashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili.

79.Yalpi foydani bashoratlash. Ma'lumotlar: tushum (2025) = 1 380 000, tannarx (2025) = 897 000. Topshiriq: 2025 yil yalpi foydani toping.

80.Mahsulot assortimentini boshqarish

81.Buxgalteriya balansi tahlili mazmuni va vazifalari

82.Reja va haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari tahlili. Korxonada reja va haqiqiy xarajatlar quyidagicha:

Xarajat turi	Reja (mln)	Haqiqiy (mln)
Materiallar	400	450
Ish haqi	180	200
Amortizatsiya	110	120
Boshqa xarajatlar	90	100
Jami	780	870

98. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning ob'ektiv zarurligi, uni tahlil qilish maqsadi va vazifalari.

99. Xususiy kapitalning dinamik tahlili.

100. Qarzlarni qoplash qobiliyati (Cash Flow Debt Coverage). Ma'lumotlar: operatsion pul oqimi (CFO) 85 000, jami qarzlarni 410 000. Topshiriq: qarzlarni pul oqimi bilan qoplash koeffitsientini hisoblang.

101. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari.

102. Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalari.

103. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot hajmi ta'siri. Reja bo'yicha mahsulot hajmi 10 000 dona, haqiqiy 12 000 dona. Jami ishlab chiqarish xarajatlari: reja: 780 mln, haqiqiy: 870 mln. Topshiriq: reja va haqiqiy 1 dona mahsulot tannarxini hisoblang, tannarx kamayganmi yoki oshganmi?

104. Buxgalteriya balansining gorizontaal (davriy) tahlili.

105. Korxonaning iqtisodiy resurslari, uning moliyaviy tuzilmasi, likvidligi, to'lovga qobiliyatini moliyaviy ahvol va barqarorlikka ta'siri.

106. Gorizontaal tahlil (o'sish va kamayish). Balans ma'lumotlari (ming so'm):

Ko'rsatkich	2024	2025
Uzoq muddatli aktivlar	500 000	560 000
Aylanma aktivlar	700 000	840 000
Jami aktivlar	1 200 000	1 400 000
Kapital	720 000	840 000
Majburiyatlar	480 000	560 000

Topshiriq: Absolyut o'zgarishni hisoblang. O'sish sur'atini (%) toping

107. Buxgalteriya balansining vertikal (tarkibiy) tahlili.

108. Korxonaning o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganligi tahlili.

109. Likvidlik tahlili (joriy, tezkor, mutlaq). Balans ma'lumotlari (ming so'm):

Ko'rsatkich	Summa
Pul mablag'lari	90 000
Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar	30 000
Debitorlik qarzlari	180 000
Zaxiralar	250 000
Aylanma aktivlar jami	550 000
Qisqa muddatli majburiyatlar	400 000

Topshiriq: joriy likvidlik koeffitsienti, tezkor likvidlik koeffitsienti, mutlaq likvidlik koeffitsienti

110. Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning huquqiy normalori.

111. Daromadlar va xarajatlarni bashoratlash: sotish hajmi, mahsulot tannarxi, operatsion daromad va xarajatlar, foyda hajmi va rentabellik darajalarini bashoratlash.

112. Korxonalarni likvidlik koeffitsienti bo'yicha reytinglash. 3 ta korxona ma'lumotlari:

Korxona	Joriy aktivlar (ming so'm)	Joriy majburiyatlar (ming so'm)
A	450 000	250 000
B	380 000	240 000
C	600 000	400 000

Topshiriq: Joriy likvidlik koeffitsientini hisoblang va reyting tuzing.

128. Korxonalar moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili.
129. Kreditga layoqatlik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari.
130. Sotish hajmini bashoratlash (o'sish sur'ati usuli). Ma'lumotlar: 2024 yilda tushum (sotishdan daromad) = 1 200 000 ming so'm, 2025 yilda tushum 2024 yilga nisbatan 15% ga o'sishi rejalashtirilgan. Topshiriq: 2025 yil uchun tushumni bashorat qiling.
131. Kreditga layoqatlikning tavsifi.
132. Buxgalteriya balansini moddalarining likvidlik bo'yicha turkumlanishi.
133. Moliyaviy mustaqillikni baholash. Ma'lumotlar (ming so'm): o'z kapitali: 750 000, jami aktivlar: 1 200 000, jami majburiyatlar: 450 000. Talab: avtonomiya koeffitsienti, qarzlarning umumiy aktivlarga nisbati, xulosa chiqaring
134. Aktivlar, kapital va majburiyatlarni bashoratlash.
135. Kreditga layoqatlik tahlili
136. Mahsulot tannarxini bashoratlash (ulush usuli). Ma'lumotlar: 2024 yilda: tushum = 1 200 000, mahsulot tannarxi = 780 000, 2025 yilda tushum = 1 380 000 (1-masala natijasi). Topshiriq: 2025 yil tannarxini bashorat qiling (tannarx ulushi o'zgarmaydi deb olamiz).
137. Reyting baholash amaliyoti.
138. Iqtisodiy nochorlik xavf-xatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili.
139. Xususiy kapital tarkibidagi ulushlarni hisoblash. Korxona ma'lumotlari (ming so'm): ustav kapitali 400 000, qo'shimcha kapital 80 000, zaxira kapitali 50 000, taqsimlanmagan foyda 170 000, jami xususiy kapital 700 000. Topshiriq: har bir qismning ulushini (%) hisoblang.
140. Buxgalteriya balansining likvidligi va korxona to'lov layoqatining tahlili.
141. Kreditga layoqatlikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari: ekspert baholash va ballik (skoring) baholash tizimi.
142. Uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik tahlili. Ma'lumotlar (ming so'm): o'z kapitali: 900 000, uzoq muddatli majburiyatlar: 400 000, qisqa muddatli majburiyatlar: 300 000, jami aktivlar: 1 600 000, asosiy vositalar: 1 100 000, zaxiralar: 350 000. Talab: o'z aylanma mablag'larini hisoblang, zaxiralarni qoplash darajasini baholang, barqarorlik turini aniqlang
143. Moliyaviy tahlilning asosiy bo'limlari: moliyaviy hisobot tahlili, investitsion tahlil, qimmatli qog'ozlar bozoridagi jarayonlar tahlili, moliyaviy hisobotni bashoratlash.
144. Moliyaviy tahlilni tashkil etishda korxonaning tarmoq xususiyati, faoliyat ko'lami, raqobatdagi o'rni kabi jihatlarini hisobga olish.
145. Likvidlik koeffitsientlari asosida kreditga layoqatlik. Berilgan ma'lumotlar (mln so'm): Joriy aktivlar – 520. Shundan: pul mablag'lari – 60, debitorlik qarzlari – 180, zaxiralar – 280, joriy majburiyatlar – 260. Toping: joriy likvidlik koeffitsienti, tezkor likvidlik koeffitsienti, absolyut likvidlik koeffitsienti
146. Pul oqimlari tahlili.
147. Korxonalar moliyaviy holatini va samaradorligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlar bo'yicha reytingini aniqlash va ularning qiyosiy tahlili.
148. Operatsion foydani (EBIT) bashoratlash. Ma'lumotlar: 2024 yilda davr xarajatlari = 210 000 (ma'muriy + sotish xarajatlari), 2025 yilda davr xarajatlari tushumning 17% iga teng bo'lishi rejalashtirilgan. 2025 yil tushum = 1 380 000. Topshiriq: 2025 yil operatsion xarajatlar va EBIT ni bashorat qiling.

**“Iqtisodiy tahlil va statistika”
kafedra mudiri:**



A.N.Xoliqulov